



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

XORIJIY TIJORAT TASHKIOTLARI FILIALLARINING FAOLIYATINI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA LITSENZIYALASH

Xurramova Ra'no

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Tel: + 998-99-815-85-06

ranoxurramova45@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarining ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash tartib-taomillari, amaldagi qonunchilik asoslari, jarayonlarning bosqichlari va ularda uchrayotgan amaliy muammolar yoritilgan. Xorijiy filiallarning faoliyati mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va texnologik rivojlanishni ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, tadqiqotda davlat va biznes o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlash maqsadida "bir darcha" tizimining kengaytirilishi, raqamlashtirish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish zarurligi ta'kidlangan. Tezisda xorijiy filiallarning huquqiy maqomi, faoliyatni boshlash uchun zarur hujjalalar, litsenziyalash talablari hamda mavjud muammolar va takomillashtirish bo'yicha takliflar batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tijorat tashkilotlari, filial, ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, investitsiya, huquqiy asos, iqtisodiy xavfsizlik, raqamlashtirish, "bir darcha" tamoyili, huquqiy muhit, O'zbekiston, qonunchilik.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlatlar o'rtaсидаги iqtisodiy, savdo va investitsiyaviy aloqalar yanada chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro miqyosdagi biznes subyektlarining boshqa mamlakatlarda o'z filiallarini ochib, mahalliy bozorga kirib kelish holatlari keng quloch yoymoqda. Xorijiy tijorat tashkilotlari filiallari nafaqat to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini kuchaytiradi, balki yuqori malakali ish o'rinalarini yaratadi, ilg'or boshqaruv va texnologiyalarni olib kiradi, shuningdek, mamlakat ichidagi tadbirkorlik raqobatini



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, ularning faoliyatini huquqiy asosda rasmiylashtirish — ya’ni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va litsenziyalash — har qanday mustaqil iqtisodiy siyosat yuritayotgan davlat uchun zarurat hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tashkilotlarning faoliyatini shaffof, qonuniy va nazorat ostida yuritilishi mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi ham tashqi investitsiyalarni jalg qilish, tadbirkorlikni erkinlashtirish va qulay huquqiy muhit yaratish yo‘lida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning ayrim faoliyatlarini litsenziyalash tartib-taomillari ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bunday tartibotlar ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomonidan, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, ularga aniq va ishonchli qonuniy kafolatlar beradi; ikkinchi tomondan esa, davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, qonunbuzarliklarning oldini olish va moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, strategik sohalarda — moliya, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan filiallar uchun litsenziyalash tizimi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tezis ishida xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarini O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, ular uchun amal qiladigan litsenziyalash talablari, bu jarayonlarning asosiy bosqichlari, ularni tartibga soluvchi qonunchilik me’yorlari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliyotdagi dolzarb muammolar va takomillashtirishga doir takliflar ham bayon etiladi. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish orqali tizimli va huquqiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarini ro‘yxatdan o‘tkazish va litsenziyalash bosqichlari

Bugungi kunda ko‘plab xorijiy kompaniyalar O‘zbekistonda o‘z filiallarini ochishga qiziqmoqda. Bunga sabab — mamlakatimizdagi qulay sarmoyaviy muhit, islohotlar, soliq imtiyozlari va ochiq iqtisodiy siyosatdir. Ammo bu filiallar faoliyat



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

boshlashidan oldin muayyan qonuniy tartibdan o‘tishi kerak. Quyida ushbu jarayon bosqichma-bosqich izohlanadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish – hammasi huquqiy asos bilan boshlanadi

Xorijiy tashkilot O‘zbekistonda ishslashni boshlashidan avval, u yuridik jihatdan tan olingan bo‘lishi kerak. Buning uchun filialni Adliya vazirligi (yoki ayrim holatlarda – tuman yoki viloyat adliya organlari) orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etiladi.

Muhimi shundaki, filial mustaqil yuridik shaxs bo‘lmaydi — u bosh ofisning “qo‘li” sifatida faoliyat yuritadi. Lekin ro‘yxatdan o‘tmasdan hech qanday tijorat faoliyati olib borishi mumkin emas.

Ro‘yxatdan o‘tkazish uchun topshiriladigan asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat: Asosiy tashkilotning ustavi yoki muassislik hujjati (notarial tasdiq bilan);

Kompaniyaning ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatidagi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini ko‘rsatuvchi hujjat;

Filial ochish to‘g‘risidagi qaror (kompaniya direktorlar kengashi yoki muassislar yig‘ilishi qarori);

Vakolatli shaxsga ishonchnoma va uning pasporti;

Ofis joylashgan manzilga doir hujjatlar (ijara shartnomasi, mulk huquqi guvohnomasi);

Soliq idoralarida hisobga turish uchun INN olish hujjatlari.

Ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng filial faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘ladi, bank hisobraqami ochish, xodimlar yollash, shartnomaga tuzish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Litsenziyalash – hamma sohada ham ruxsat kerak emas, lekin ba’zilarida shart Hammasi filial nima ish qilmoqchi bo‘layotganiga bog‘liq. Masalan, agar u savdo bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lsa, litsenziya talab qilinmaydi. Ammo ba’zi faoliyat turlari bor, ularni litsenziyasiz boshlab bo‘lmaydi.

Ushbu faoliyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Bank va moliyaviy xizmatlar;
2. Sug‘urta, audit, investitsiya faoliyati;
3. Dori-darmon ishlab chiqarish yoki sotish;
4. Ta’lim va tibbiyot faoliyatları;
5. Transport, energetika, qurilish xizmatları va boshqalar.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

Bunday hollarda filial alohida tartibda litsenziya olishi kerak bo‘ladi. Bu litsenziyani tegishli vazirlik yoki agentlik beradi (masalan, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi va hokazo).

Litsenziya olish uchun ham qo‘srimcha hujjatlar talab etiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishining tavsifi;
2. Mutaxassislar haqida ma’lumot;
3. Texnik jihozlanish yoki me’yorlarga muvofiqlikni isbotlovchi hujjatlar;
4. Atrof-muhit, sanitariya va yong‘in xavfsizligi ekspertizalari.

Litsenziya olmasdan bunday faoliyatni boshlash noqonuniy hisoblanadi va filial jarimaga tortilishi yoki hatto faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lishi mumkin.

Amaliyotdagi ba’zi muammo va kamchiliklar

Amaliyotda xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarini ro‘yxatdan o‘tkazish va litsenziyalash jarayonida ayrim byurokratik muammolar va texnik to‘siqlar uchrab turadi. Jumladan, ro‘yxatga olish va litsenziya olish tartibi hali-ham ko‘plab hujjatbozlik va ortiqcha qadamlarni o‘z ichiga oladi. Tashkilotlar ko‘pincha bir nechta davlat organlariga alohida-alohida murojaat qilishga majbur bo‘lishadi, bu esa jarayonni cho‘zadi. Bundan tashqari, topshiriladigan hujjatlarning ko‘pchiligi notarial tasdiqlangan, tarjima qilingan va ayrim hollarda apostil qo‘yilgan bo‘lishi talab qilinadi. Bu esa o‘z-o‘zidan ham vaqt, ham moddiy resurslarning ortiqcha sarf bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun mazkur tartiblarni soddallashtirish maqsadida “bir darcha” tamoyilini yanada kengaytirish, barcha hujjatlarni elektron shaklda qabul qilish imkonini beruvchi raqamli davlat xizmatlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, litsenziyalash jarayonida yagona elektron platformaning mavjud emasligi sababli muvofiqlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu bois, litsenziya olish jarayonini onlayn muhitda to‘liq amalga oshirish imkonini beruvchi yagona integratsiyalashgan tizim ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosा

Xorijiy tijorat tashkilotlari filiallarining O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritishi davlatimizning ochiq iqtisodiy siyosati, xorijiy investitsiyalar uchun yaratilayotgan qulay muhit va xalqaro hamkorlik tamoyillariga mos keladi. Ularning qonuniy asosda ro‘yxatdan o‘tkazilishi va faoliyat turi litsenziyalashni talab qilsa —



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

tegishli ruxsatnomalar asosida ishlashi davlatning huquqiy, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini muvozanatli tarzda ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash jarayonlari o'zbek qonunchiligidagi aniq belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim tartibotlar, ayniqsa hujjatlar yig'ish va idoralararo muvofiqlashtirishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu bois, mazkur sohada "bir darcha" tizimining yanada kengaytirilishi, hujjatlarni elektron shaklda topshirish imkoniyatining yaratlishi va litsenziyalash uchun yagona elektron platformaning ishlab chiqilishi dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, xorijiy filiallarning faoliyati ustidan qonuniy nazoratni kuchaytirish bilan birga, ularning samarali ishlashi uchun soddalashtirilgan, lekin shaffof huquqiy muhit yaratish muhim. Bu, bir tomonidan, iqtisodiy o'sish va sarmoyaviy jozibadorlikka xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, ichki bozorni tartibsiz va noqonuniy faoliyatlardan himoya qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tijorat tashkilotlari filiallari faoliyatini huquqiy jihatdan to'g'ri yo'lgan qo'yish, davlat va biznes o'rtaida ishonchli hamkorlik munosabatlarini shakllantiradi. Bu esa O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni, 2003-yil 24-dekabr, O'RQ-276-sон.
3. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 15-iyun, O'RQ-710-sон.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 24-dekabr, O'RQ-598-sон.
5. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-martdagи 91-sonli qarori "Litsenziya va ruxsat berish hujjatlari bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida".



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyuldagи PQ-308-sonli qarori “Investitsiya muhitini yaxshilash va tartib-taomillarni soddalashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
7. G‘ulomov S.S., Ergashev A.S. “Biznes huquqi: nazariya va amaliyat”. – Toshkent: Huquq, 2021.
8. Xamidov B.A. “Xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish”. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2023.
9. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. Official website: <https://stat.uz>
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik shaxslarni ro‘yxatga olishga oid rasmiy portal ma’lumotlari: <https://my.gov.uz>
11. World Bank Group. “Doing Business in Uzbekistan 2022” – Washington, D.C., 2022.